

FONOLOGIK ZIDDIYATLAR VA ULARNING PARADIGMATIK TUZILMASI

Nodirbek Nosirjon o'g'li Xabibillayev

University of Business and Science

Til va adabiyot ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi

morfemik1997@gmail.com

Tel: +998944979772

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tili fonologik tizimidagi ziddiyatlar (oppozitsiyalar)ning paradigmatic tuzilmasi strukturaviy-fonologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Fonologik ziddiyat fonemalar orasidagi differensial munosabat sifatida izohlanib, til tizimining ma'no farqlovchi mexanizmini belgilovchi asosiy birlik sifatida talqin etiladi. Tadqiqot N. Trubetskoyning "Grundzüge der Phonologie" (1939) asaridagi nazariy asosga tayanadi hamda fonemalarning differensial belgilar ($\pm$ voiced, $\pm$ nasal, $\pm$ continuant) orqali tizimlanishini yoritadi. O'zbek tili materiali asosida fonologik oppozitsiyalarning to'liq, qisman, fonetik va fonologik turlari aniqlanib, jarangli-jarangsiz undoshlar paradigmasi orqali ularning matritsali modeli taklif etiladi. Neytrallanish hodisasi esa ziddiyatlarning kontekstual kuchsizlanish shakli sifatida izohlanadi. Natijalar o'zbek tili fonemik tizimi differensial belgilar asosida tashkil topgan paradigmatic tarmoqdan iborat ekanini ko'rsatadi. Fonologik ziddiyatlar ushbu tarmoqda semantik chegaralarni belgilab, til tizimining strukturaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: fonologik ziddiyat, fonema, paradigma, differensial belgi, neytrallanish, o'zbek tili, Trubetskoy.

ABSTRACT

This article analyzes the paradigmatic structure of phonological oppositions in the Uzbek phonological system within the framework of structural phonology. Phonological opposition is interpreted as a differential relationship between phonemes that determines the meaning-distinguishing mechanism of the language. The study is based on N. Trubetskoy's theoretical concept presented in "Grundzüge der Phonologie" (1939) and reveals how phonemes are systematized through differential features ($\pm$ voiced, $\pm$ nasal, $\pm$ continuant). Using Uzbek language data, the study identifies and classifies complete, partial, phonetic, and phonological oppositions and models their paradigmatic relations through the voiced-voiceless consonant matrix. Neutralization is interpreted as a contextual weakening of phonological opposition. The results demonstrate that the Uzbek phonemic system

forms a paradigmatic network based on differential features, where oppositions define semantic boundaries and ensure the structural stability of the language system.

Keywords: phonological opposition, phoneme, paradigm, differential feature, neutralization, Uzbek language, Trubetzkoy.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается парадигматическая структура фонологических оппозиций в системе узбекского языка с позиций структурной фонологии. Фонологическая оппозиция трактуется как дифференциальное отношение между фонемами, определяющее механизм смысловоразличения языка. Теоретическую основу исследования составляет концепция Н. Трубецкого, изложенная в труде «Grundzüge der Phonologie» (1939), где показано, что фонемы систематизируются посредством дифференциальных признаков ($\pm$ звонкий, $\pm$ носовой, $\pm$ прерывистый). На материале узбекского языка выделены и классифицированы полные, частичные, фонетические и фонологические оппозиции, а их парадигматические связи представлены через матрицу звонких и глухих согласных. Нейтрализация рассматривается как контекстуальное ослабление фонологической оппозиции. Результаты исследования показывают, что фонемная система узбекского языка образует парадигматическую сеть на основе дифференциальных признаков, где оппозиции определяют семантические границы и обеспечивают структурную устойчивость языковой системы.

Ключевые слова: фонологическая оппозиция, фонема, парадигма, дифференциальный признак, нейтрализация, узбекский язык, Трубецкой.

KIRISH

Fonologik ziddiyat (oppozitsiya) — bu fonologik tizim doirasida ma’noni farqlovchi fonemalar o’rtasidagi differensial munosabatdir. Fonologik ziddiyatlar yordamida fonemik birliklar bir-biridan ajratiladi va mazmun farqlari yuzaga chiqadi. Fonologik tizim aynan mana shu ziddiyatlar orqali strukturaviy yadroga ega bo’ladi va har bir tilning fonologik tizimi o’ziga xos ziddiyatlar tarmog’i bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nazariy jihatdan bu tushuncha Nikolay Trubetskoyning “Grundzüge der Phonologie” (1939) asarida chuqur asoslab berilgan. U fonologiyani strukturalistik nuqtai nazardan yondoshgan holda, fonemalarni ularning sistematik munosabatlari, ayniqsa, oppozitsiyalar orqali o’rganishni ilgari surdi.

Fonologik oppozitsiyalar turlari (Trubetskoy tasnifiga ko’ra)

T/r	Oppozitsiya turi	Oppozitsiya tavsifi	Misol
1.	To'liq (complete)	Ushbu oppozitsiyada qarama-qarshi fonemalar har doim barcha kontekstlarda farqlanadi	b ↔ p (boz ↔ poz)
2.	Qisman (neutralizable)	Ushbu oppozitsiyalar faqat ba'zi fonetik kontekstlarda neytrallashadi	d ↔ t oppozitsiyasi so'z oxirida neytrallashadi: kitobdi ↔ kitopti (oral til lahjalarida)
3.	Fonologik	Ma'no farqlovchi (minimal juftlik asosida aniqlanadi)	kul (laugh) ↔ gul (flower)
4.	Fonetik	Talaffuzdagi farq mavjud, ammo semantik yuk yo'q	k ^h ul ↔ kul (aspiratsiyalash)
5.	Ikkilik oppozitsiya (binary)	Bitta differensial belgi asosida	±voiced: t ↔ d
6.	Ko'plik oppozitsiya (multiple)	Bir nechta belgi asosida	k ↔ b –voiced, +dorsal vs +voiced, +labial
	Markazlashgan (marked)	Murakkab, ixtisoslashgan	t – unmarked, d – marked (talaffuz uchun qo'shimcha energiya talab qilinadi)
	Markazsiz (unmarked)	Oddiy, asosiy	

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Paradigmatik tuzilma — bu fonologik tizimdagi fonemalarning o'zaro nisbiy qarama-qarshiliklar asosida tuzilgan tizimli munosabatlar majmuasidir. Paradigma doirasida har bir fonema o'zining o'rnini boshqa fonemalarga nisbatan oladi va fonemalar tarmoq ko'rinishida strukturaviy sath hosil qiladi.

Bu sathda fonemalar matritsa shaklida ifodalanadi:

O'zbek tilidagi jarangli–jarangsiz fonemalar paradigmasi (faqat undoshlar)

T/r	Artikulyatsiya joyi	Jarangsiz	Jarangli
1.	Labial	/p/	/b/
2.	Dental	/t/	/d/
3.	Velar	/k/	/g/
4.	Frikativ	/s/	/z/
5.	Affrikat	/ch/	/j/

Bu jadval fonemalar orasidagi paradigmatik ziddiyatlarning tizimli tuzilishini ko'rsatadi. Har bir qatordagi juftlik differensial belgi (±voiced) orqali ajratiladi.

Fonologik ziddiyatlarning asosiy funksiyasi — semantik differensiasiya, ya'ni ma'no ajratish. Bu jihat fonemalarni oddiy fizik tovushlardan ajratadi. Minimal juftliklar orqali bu ziddiyatlar aniqlanadi:

- kul – gul (kulgidan gulga o'tish)
- zor – zor (stress joyiga qarab)
- pish – bish (boshlang'ich fonemaning differensial roli)

Fonologik tizimdagi har bir fonema o'zining ziddiyatli munosabatlari orqali mazmuniy yuk oladi va strukturaviy tizimdagi o'z o'rnini aniqlaydi.

Fonologik tahlilda fonemik paradigma quyidagicha modellashtiriladi:

O'zbek tili misolida:

$P = \{-voiced, +labial\}$ vs $B = \{+voiced, +labial\}$

Shu tarzda, fonologik ziddiyatlarni differensial belgilar orqali paradigmatic modellashtirish mumkin.

Ba'zi fonologik ziddiyatlar neytrallanishi mumkin, ya'ni fonemalar ayrim kontekstlarda farqlanmaydi:

- So'z oxirida: "kitob" so'zining oxiri b emas, balki [p]ga yaqin bo'lishi;
- Regressiv assimilyatsiya: "qil+gan" → [qilgan], bu yerda g tovushi orqadan kelgan n ta'sirida hosil bo'ladi.

Neytrallanish fonologik ziddiyatning kontekstual kuchsizlanishidir va bu holatlarda fonemalar o'zining paradigmatic funksiyasini to'liq bajarmaydi.

XULOSA

Shunday qilib, fonologik ziddiyatlar tilning fonemik tizimini tashkil etuvchi asosiy strukturaviy omillardan biridir. Ular differensial belgilar orqali aniqlanadi va paradigmatic munosabatlar tarmog'i orqali tizimlashadi. O'zbek tilida fonologik ziddiyatlar asosan jaranglilik, artikulyatsiya joyi, burunlilik, uzluksizlik kabi asosiy differensial belgilar orqali ifodalanadi. Ularning paradigmatic joylashuvi fonemik inventarning sistematik qamrovini va tashkiliy mexanizmini ochib beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. DILMUROD, A., & SHOIRA, B. (2025). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI ("Alpomish" dostoni asosida). *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(6), 191-199.
2. Iskandarova, S., Kuziyev, U., Ashurov, D., & Rakhmatullayeva, D. (2024, November). Advancing Natural Language Processing: Beyond Embeddings. In *2024 International Conference on IoT, Communication and Automation Technology (ICICAT)* (pp. 792-796). IEEE.

3. Ashurov, D. A. (2019). THE LINGVOCULTURAL CHARACTERICS OF COLOR COMPONENT PHRASEOLOGIES IN THE VERSION OF “ALPOMISH” EPIC. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 279-282.
4. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI (2-QISM). *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 3(9), 18-20.
5. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(11), 79-80.
6. XASHIMOVA, X. (2025). TERMINOLOGIK BAZANING YAGONA ELEKTRON PLATFORMASINI YARATISH ISTIQBOLLARI: TEXNIK TERMINOLOGIYANI STANDARTLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(6), 232-237.
7. Khashimova, K., & Kuziev, U. (2020). Participation of languages of other systems in the formation of the uzbek literary language. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*, 22-25.
8. Khashimova, K. D. (2021). LITERARY LANGUAGE AND SPEECH NORMS. *Theoretical & Applied Science*, (4), 27-29.
9. Djurakhanovna, K. K. (2025). PSYCHOLINGUISTICS: TEXT, SPEECH, AND THE HUMAN FACTOR. *EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements*, 1(6), 219-223.
10. Хашимова, Х., & Пазлитдинова, Н. (2024). Роль терминологии в развитии лексического строя языка. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(2/S), 112-116.
11. Djuraxanovna, X. X. (2024). MUSTAQILLIK TERMINOLOGIYASINING AYRIM QIRRALARI. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(7), 67-74.
12. G‘anijonovich, T. R. (2025, October). MODAL SO ‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 6, pp. 102-105).
13. Tojimatov, R. (2025). NOUNS CONNECTED WITH THE NAMES OF HISTORICAL PERSONS IN THE WORKS OF SAID AHMAD HAJVI. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(5), 418-420.
14. Tojimatov, R. G. A. (2025). SAID AHMAD HAJVIY ASARLARIDA KINOYALI HAJVNING LISONIY XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(5), 461-467.

15. Tojimatov, R. G. A. (2023). MUHAMMAD YUSUF IJODIDA QO‘LLANILGAN POETONIMLARNING LINGVOPOETIK, JIHATDAN TAHLIL QILISH TAMOIYILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 174-180.
16. Mengliev, D., Nabiyeva, D., Abdurakhmonov, A., Makhmudov, K., Nuritdinov, A., & Otemisov, A. (2025, June). Educational Text Analysis in Uzbek: Developing an NER Algorithm for Academic and Pedagogical Content. In *2025 IEEE 26th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM)* (pp. 2100-2103). IEEE.
17. Nuritdinov, A. (2025). MATNLARNI LINGVOSTATISTIK TAHLIL QILISHDA KORPUS USULLARIDAN FOYDALANISH. *Молодые ученые*, 3(19), 93-97.
18. Nuritdinov, A. (2025). KONKORDANS–LINGVISTIK TAHLIL VOSITASI SIFATIDA. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(13), 173-178.
19. Nuritdinov, A. (2025). Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI*, 3(5).
20. Nuritdinov, A. (2024). JADID DAVRI ADABIY MUHITIGA DOIR ASARLARDAN KORPUSDA FOYDALANISH. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
21. Nuritdinov, A. (2022). O ‘ZBEK TILI KORPUSI UCHUN ABDURAUF FITRATNING LINGVISTIK ASARLARINI MANBA SIFATIDA OLINISHI. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
22. Nuritdinov, A. S. O. G. L. (2022). O‘zbek tili milliy korpusi uchun jadid tilshunoslarining lingvistik asarlarini manba sifatida olinishi. *Science and Education*, 3(4), 2048-2057.